

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2025-yil 23-dekabr kuni o'tkaziladi

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/corporate/calendar/o-zkimyosanoat-aksiyadorlik-jamiyati-aksiyadorlarining-navba>

"O'ZKIMYOSANOAT" AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2025-yil 23-dekabr kuni soat 15:00 da Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy ("O'zkimyosanoat" AJ ma'muriy binosi)da o'tkaziladi.

Umumiy yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish 2025-yil 23-dekabr kuni soat 14:00 da boshlanib, soat 15:00 gacha davom etadi.

KUN TARTIBI:

1. "O'zkimyosanoat" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. "O'zkimyosanoat" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. "O'zkimyosanoat" AJning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.
4. "O'zkimyosanoat" AJ ustaviga o'zgartirish kiritish orqali uni yangi tahrirda tasdiqlash hamda jamiyatning yangi tahrirdagi "Ijroiya organi to'g'risida"gi nizomini tasdiqlash.
5. "O'zkimyosanoat" AJ va uning tizimidagi korxonalarning 2024-yil 31-dekabrda yakunlangan yillik konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarining Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga muvofiq (MHXS) auditi bo'yicha "KPMG" kompaniyasining auditorlik xulosasini ko'rib chiqish.
6. "O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kengashi a'zolarining javobgarligini sug'urta qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash.

Umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun aksiyadorlar reestri 2025-yil 28-noyabr holatiga hamda umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega aksiyadorlar reestri 2025-yil 17-dekabr holatiga shakllantiriladi.

Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun aksiyadorlar o'zi bilan pasport, aksiyadorlar vakillari esa - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan qatnashishlari so'raladi.

Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan tanishish uchun quyidagi manzil va telefon raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin: Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy, telefon: +(99878) 140-74-97, 140-74-98. E-mail: info@uks.uz

"O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kengashi